

 [Sahifani PDF tarzda yuklab olish \(59 Kb\)](#)  [Versiyasi](#)  [Sahifani doc tarzda yuklab olish \(59 KB\)](#)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 2 martdagi "Olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha Nukus oliy sport mahorati maktabini tashkil etish to'g'risida"gi 157-son qarori haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020 yil Tokio shahrida (Yaponiya) bo'lib o'tadigan XXXII yozgi Olimpiya va XVI Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini munosib tayyorlash to'g'risida"

2017 yil 9 martdagi PQ-2821-son qarori ijrosini ta'minlash hamda olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha respublika terma jamoalarini tayyorlashni zarur darajada bosqichma-bosqich tashkil etish, iqtidorli yoshlarni sport bilan muntazam shug'ullanishga faol jalb etish, ulardan mamlakat sport terma jamoalarining ishonchli zaxirasini shakllantirish maqsadida **Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 2 martdagi "Olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha Nukus oliy sport mahorati maktabini tashkil etish to'g'risida"gi 157-son qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

a) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahridagi M.Jumanazarov ko'chasida joylashgan va foydalanishga topshirilgan yangi sport majmuasi negizida Olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha Nukus oliy sport mahorati maktabini (keyingi o'rinlarda oliy sport mahorati maktabi deb ataladi) tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilganligi;

b) Oliy sport mahorati maktabi o'z faoliyatini Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 23 sentyabrdagi 211-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasidagi Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan sport maktablari to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiruvchi maktabdan tashqari sport-ta'lim muassasasi hisoblanishi belgilanganligi;

v) Quyidagilar oliy sport mahorati maktabining asosiy vazifalari etib:

sportning olimpiya va milliy sport turlari bilan shug'ullanish uchun zarur sport ko'rsatkichlari, sport salohiyati, sportning tanlangan turi bo'yicha professional ko'nikmalar va mahoratga ega bo'lgan iqtidorli va istiqbolli sportchilarni tanlab olish;

olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha yangi ilmiy-metodik tavsiyalar va yutuqlar asosida sport zaxiralarini, terma jamoalarga yuqori mahoratli sportchilar va malakali trenerlarni tayyorlash uchun o'quv-mashg'ulot yig'inlarini o'tkazish, bunda sportchilar va trenerlarini yotoqxonalar bilan ta'minlash va ovqatlanishini tashkil etish;

sport terma jamoalarining asosiy va zaxira tarkiblarini to'ldirishga qodir bo'lgan yuqori malakali sportchilarni tayyorlash, sportning olimpiya va milliy turlarini rivojlantirish hamda zamonaviy bilimlarga ega trenerlar tarkibini tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

nazariy tayyorgarlik va texnik-taktik ko'nikmalarni takomillashtirish, sportchilarning professional sifatlarini rivojlantirish, shuningdek, olimpiya va milliy sport turlarini rivojlantirishning xalqaro talablariga muvofiq terma jamoalarni tayyorlash darajasini oshirish;

sportning olimpiya va milliy turlari bo'yicha etakchi xorijiy davlatlar, sport tashkilotlari va klublar bilan hamkorlikni rivojlantirish, shu jumladan sportchilar va trenerlar tarkibining kasb mahoratini oshirish yuzasidan Xitoy davlati tajribasidan foydalanish, yuqori darajaga ega bo'lgan xorijiy va mamlakatimizning malakali amaliyotchi mutaxassislari va trenerlarini shartnoma asosida jalb etgan holda, Qoraqalpog'iston Respublikasidagi sport-ta'lim muassasalarining trener-o'qituvchilarining malakasini oshirish;

trener-o'qituvchilar malakasini oshirish, shu jumladan bolalar trenerlarini tayyorlash, iqtidorli yosh sportchilarni aniqlash, xalqaro sport maydonlarida munosib qatnashadigan professional sportchilarni tayyorlash uchun ularning ko'nikma va bilimini rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy o'qitish dasturlari va metodlarini joriy etish belgilanganligi;

g) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasiga bir oy muddatda:

oliy sport mahorati maktabining tuzilmasi va ustavini belgilangan tartibda tasdiqlash, shuningdek, uning ustavi belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlash;

oliy sport mahorati maktabini yuqori malakali mutaxassislar va trener-o'qituvchilar bilan ta'minlash;

sport turlari bo'yicha o'quv-mashg'ulot jarayonini etarli darajada tashkil etish uchun zarur sport jihozlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash xamda sport zallari va o'quv xonalarini jihozlash chora-tadbirlarini amalga oshirish topshirilganligi;

d) O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasiga, Moliya vazirligiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi bilan birgalikda 2018 yil 1 maygacha oliy sport mahorati maktabi uchun quriladigan trenerlar malakasini oshirish o'quv xonalari va 100 o'rinli mehmonxona binosining zarur loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish hamda ularni belgilangan tartibda tasdiqlash topshirilganligi;

oliy sport mahorati maktabi uchun trenerlar malakasini oshirish o'quv xonalari va 100 o'rinli mehmonxona binosini 2018 yil oxirigacha qurish va jihozlash uchun zarur mablag'lar O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan ajratilishi belgilanganligi;

e) O`zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo`mitasiga oliy sport mahorati maktabi uchun trenerlar malakasini oshirish o`quv xonalari va 100 o`rinli mehmonxona binosini qurish va jihozlash bo`yicha loyiha-smeta hujjatlari davlat ekspertizasidan belgilangan tartibda o`tkazilishini ta`minlash hamda qurilish-montaj ishlarining sifatli bajarilishi bo`yicha nazorat o`rnatish topshirilganligi;

j) Quyidagilar, oliy sport mahorati maktabi faoliyatini moliyalashtirish:

O`zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag`lari;

oliy sport mahorati maktabi faoliyati ixtasoslighi bo`yicha pullik xizmatlar ko`rsatishdan tushadigan mablag`lar;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik hayriyalari;

qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirilishi belgilanganligi;

z) O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga:

2018 yil uchun Qoraqalpog`iston Respublikasi byudjeti xarajatlar parametrlariga tegishli o`zgartirishlar kiritish, shuningdek, 2019 yildan boshlab O`zbekiston Respublikasi Davlat byudjetini shakllantirishda respublika oliy sport maktabi ta`minoti uchun "Ta`lim" sohasiga ajratiladigan mablag`lar doirasida zarur byudjet mablag`larini nazarda tutish;

oliy sport mahorati maktabiga 1 ta maxsus avtotransport vositasini saqlash uchun limit ajratish topshirilganligi;

i) O`zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo`mitasiga manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda o`zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirish topshirilganligi ma`lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Qoraqalpog`iston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo`mitasi, Moliya vazirligi, Qoraqalpog`iston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo`mitasi va tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2018 yil 1 maygacha oliy sport mahorati maktabi uchun quriladigan trenerlar malakasini oshirish o`quv xonalari va 100 o`rinli mehmonxona binosining zarur loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish hamda ularni belgilangan tartibda tasdiqlanishini ta`minlasin;

oliy sport mahorati maktabi uchun trenerlar malakasini oshirish o`quv xonalari va 100 o`rinli mehmonxona binosini 2018 yil oxirigacha qurish va jihozlash uchun zarur mablag`lar Bolalar sportini rivojlantirish jamg`armasi hisobidan ajratilsin.

oliy sport mahorati maktabi uchun trenerlar malakasini oshirish o`quv xonalari va 100 o`rinli mehmonxona binosini qurish va jihozlash bo`yicha loyiha-smeta hujjatlari davlat ekspertizasidan belgilangan tartibda o`tkazilishini ta`minlasin hamda qurilish-montaj ishlarining sifatli bajarilishi bo`yicha nazorat o`rnatilsin.

4. Qoraqalpog`iston Respublikasi Moliya vazirligi (M.Sodiqov)ga:

2018 yil uchun Qoraqalpog`iston Respublikasi mahalliy byudjeti xarajatlar parametrlariga tegishli o`zgartirishlar kiritilsin, shuningdek, 2019 yildan boshlab O`zbekiston Respublikasi Davlat byudjetini shakllantirishda respublika oliy sport maktabi ta`minoti uchun "Ta`lim" sohasiga ajratiladigan mablag`lar doirasida zarur byudjet mablag`larini ajratishni nazarda tutsin;

Qoraqalpog`iston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo`mitasi yangidan tasdiqlangan shtatlar jadvali va xarajatlar smetasini ro`yxatdan o`tkazishni qayta ko`rib chiqsin.

5. Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi (M.Jumanov) ikki hafta muddatda:

oliy sport mahorati maktabining tuzilmasi va ustavini belgilangan tartibda tasdiqlanishini, shuningdek, uning ustavi belgilangan tartibda davlat ro`yxatidan o`tkazilishini ta`minlasin;

oliy sport mahorati maktabini yuqori malakali mutaxassislar va trener-o`qituvchilar bilan ta`minlasin;

sport turlari bo`yicha o`quv-mashq jarayonini etarli darajada tashkil etish uchun zarur sport jihozlari va o`quv-metodik adabiyotlar bilan ta`minlash xamda sport zallari va o`quv xonalarini jihozlash chora-tadbirlarini amalga oshirsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o`rinbosari M.Jumanov zimmasiga yuklatilsin.

Qoraqalpog`iston Respublikasi

Vazirlar Kengashining Raisi

Q.Sariev

Ko`rib chiqildi:



- [Vazirlar Kengashi](#)
- [Statistik va tahliliy ma`lumotlar](#)

- [Vazirliklar va idoralar](#)
- [Shahar va tuman hokimliklari](#)
- [Hujjatlar](#)
- [Respublika mehmonlariga](#)
- [Elektron hukumat](#)
- [Interaktiv davlat xizmatlar](#)